



UDK:(329.735(575.1))

*Nurmuhammad QARSHIYEV,*  
*O'zMU: "Siyosatshunoslik" kafedrası dotsenti*  
*E-mail:nurmuxammad.qarshiev@mail.ru*

*S.f.d., professor V.Qo'chqorov taqrizi asosida*

## PROBLEMS OF ENHANCING THE COOPERATION OF POLITICAL PARTIES WITH OTHER INSTITUTIONS OF CIVIL SOCIETY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Annotation

In the context of globalization, the proper organization of the activities of political parties is of significant importance for ensuring effective governance of society, as well as for strengthening their cooperation with other institutions of civil society. In the Republic of Uzbekistan, in recent years, the activities of political parties have been steadily developing and advancing to a qualitatively new stage. In particular, reforms aimed at enhancing their role in the decentralization of public administration and in the development of a free civil society grounded in democratic principles have been intensified. Nevertheless, certain areas of political party activity—specifically their interaction with other institutions of civil society—remain insufficiently developed. Societal development is inextricably linked to the effective and coordinated functioning of political institutions operating within it. From this perspective, the study of the problems related to strengthening the cooperation of political parties functioning in our country with other institutions of civil society constitutes a pressing scholarly task.

**Key words:** Political party, civil society, political institutions, democracy, electorate, elections, public administration, power.

## ПРОБЛЕМЫ ПОВЫШЕНИЯ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ПОЛИТИЧЕСКИХ ПАРТИЙ С ДРУГИМИ ИНСТИТУТАМИ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Аннотация

В условиях глобализации правильная организация деятельности политических партий приобретает важное значение для эффективного управления обществом, а также для укрепления их взаимодействия с другими институтами гражданского общества. В Республике Узбекистан в последние годы деятельность политических партий последовательно развивается и поднимается на качественно новый этап. В частности, были активизированы реформы, направленные на повышение их роли в процессе децентрализации государственного управления и развитии свободного гражданского общества, основанного на принципах демократии. Вместе с тем отдельные направления деятельности политических партий, в частности их взаимодействие с другими институтами гражданского общества, по-прежнему остаются недостаточно развитыми. Развитие общества неразрывно связано с эффективной совместной деятельностью функционирующих в нём политических институтов. С этой точки зрения изучение проблем повышения взаимодействия политических партий, осуществляющих деятельность в нашей стране, с другими институтами гражданского общества является актуальной научной задачей.

**Ключевые слова:** Политическая партия, гражданское общество, политические институты, демократия, электорат, выборы, государственное управление, власть.

## O'ZBEKISTONDA SIYOSIY PARTIYALARNING FUQAROLIK JAMIYATINING BOSHQA INSTITUTLARI BILAN HAMKORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI

Annotasiya

Globalashuv sharoitida jamiyat boshqaruvini samarali tashkil etishda siyosiy partiyalar faoliyatining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi ularning fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorligini mustaxkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda siyosiy partiyalar faoliyati rivojlanib yangi bosqichga ko'tarilib bormoqda. Xususan, ularning davlat boshqaruvini nomarkazlashtirishdagi, demokratiyaga asoslangan erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi rolini oshirish yo'lida islohotlar jadallashdi. Shunga qaramasdan siyosiy partiyalar faoliyatining ayrim yo'nalishlari xususan, ularning fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorligi sustligicha qolmoqda. Jamiyat taraqqiyoti unda faoliyat yuritayotgan siyosiy institutlarning birgalikdagi samarali faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalarning fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorligini oshirish muammolarini o'rganish dolzarbdır.

**Kalit so'zlar:** Siyosiy partiya, fuqarolik jamiyati, siyosiy institutlar, demokratiya, elektorat, saylovlar, davlat boshqaruvi, hokimiyat.

Jaxonda siyosiy tizim xususiyatlarining zamonaviylashib borayotganligi, umuman boshqaruvga zamonaviy axborot texnologiyalarining keng joriy qilinayotganligi siyosiy institutlarning ham o'zaro munosabatlarini o'zgartirishga, ta'bir joiz bo'lsa, hamkorlikdagi faoliyatini qayta ko'rib chiqishga undamoqda. Siyosatshunoslikning markaziy mavzularidan biri bo'lgan

siyosiy partiyalar va ularning hokimiyat bilan, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorligi muammolari jahon olimlari hamda mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etib kelinmoqda. Rivojlangan jamiyatlar tajribasidan ma'lumki, demokratiyaga asoslangan erkin fuqarolik jamiyatini qurilishida siyosiy partiyalarning o'zaro raqobat sharoitida mavjud boshqa siyosiy institutlar bilan hamkorlikda faoliyati

ko'proq samara bergan. Siyosiy partiyalarning dasturiy maqsadlari muayyan aholi qatlamlari manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilgan bo'lishi bilan bir qatorda ma'lum institutlar faoliyatiga mos kelishi ularning hamkorligiga asos sifatida qarash mumkin.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda siyosiy partiyalarning davlat boshqaruvidagi rolini oshirish, demokratiyaga asoslangan erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda markaziy institutlardan biri sifatida qaralayotganligi ularga ishonch bilan bir qatorda yuksak mas'uliyat yuklamogda. Siyosiy partiyalarning fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorligini kuchaytirish mamlakatimiz taraqqiyotini jadallashtiruvchi omillardan biri sifatida qaralishi lozim. Shu nuqtai nazardan fuqarolik jamiyati institutlari tushunchasi va uning mohiyatiga qasqacha to'xtalib o'tib ketsak. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning XIII bobi "Fuqarolik jamiyati institutlari" deb nomlanib, uning 69-moddasida "Fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi. Fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati qonunga muvofiq amalga oshiriladi"[1] deb belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, mamlakatimiz taraqqiyotini ta'minlashda dasturul amal bo'lib xizmat qilayotgan normativ – xuquqiy hujjatlarda siyosiy partiyalarning davlat boshqaruvidagi rolini oshirish, milliy parlamentarizmni yaratishdagi ishtirokini mustaxkamlash masalalariga alohida urg'o' berilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11-sentabr 2023-yildagi PF-158-son «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida farmoni 5 ta ustuvor yo'nalish, 100 ta maqsadni o'z ichiga qamrab olgan, uning IV-ustuvor yo'nalishi "Qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish deb nomlangan bo'lib, 4.1. Xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish va jamoatchilik boshqaruvini takomillashtirish bo'yicha islohotlar deb nomlangan bo'limi, 79-maqsadi: "Yangi O'zbekistonni barpo etishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada oshirish"ga bag'ishlangan, unga ko'ra: "Parlament va uning organlari ish jarayonlarini raqamli transformatsiya qilish shu jumladan, ular tomonidan qarorlar qabul qilish va e'lon qilish jarayonlarini 100 foiz raqamlashtirish, saylovchilar bilan elektron muloqot qilish, deputat so'rovini elektron tarzda yuborish va nazorat qilish imkoniyatini ta'minlash, qonunchilikka oid takliflarni kiritish va ko'rib chiqish tartibini joriy qilish, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish maqsadida vakillik organlariga saylovning aralash (majoritar-proporsional) tizimini joriy qilish"[2] masalalarini qamrab olgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Jahon tajribasidan ma'lumki demokratiya sharoitida hech bir siyosiy institut jamiyatda yakka holda rivojlana olmaydi. Uning kuchli siyosiy institut sifatida o'rniga ega bo'lishi uchun boshqa institutsional va funksional tuzulmalarning ko'magi zarur bo'ladi. Jumladan, siyosiy partiyalar ham fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan faol aloqaga kirishadi, ta'bir joiz bo'lsa hamkorlik qiladi hamda o'zaro raqobat sharoitida hokimiyat uchun saylovlar vositasida kurashadi. Eng soddagina misollardan biri sifatida siyosiy partiyalarning ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikdagi faoliyatini keltirib o'tishimiz mumkin.

Umuman olganda siyosiy partiyalarning fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorligi muammolarini jahon ilm fanida ko'plab olimlar tadqiq qilishgan. Misol uchun g'arb olimlaridan M.Dyuverje, M.Veber, J.Sartori, T.Parsons, T.Gobss, K.Janda, J.Brays, R. Dal, E.Giddens, S.Xantington kabilarni, rus olimlaridan

M.Ostrogorskiy, B.Isayev, S.Lansov, V.Malsev, V.Dolgov, M.Chervinskaya kabilarni, o'zbek olimlaridan Q.Nazarov, M.Qirg'izboev, I.Ergashev, B.Yakubov, V.Qo'chqorov, X.Odilqoriyev, X.Axmedov kabilarni kiritishimiz mumkin.

Siyosiy partiya tushunchasi va uning mohiyati to'g'risida gap ketganda turli olimlarning ularga berilgan turlicha ta'riflarini ko'rishimiz mumkin. Siyosiy partiyalarga ta'rif berilayotganda siyosatshunos olimlar ularning tabiati, parlament va davlat boshqaruvini shakllantirishdagi roli, saylovlarda faol ishtirok etuvchi, elektorat manfaatlarini himoyalovchi institutsional, funksional tuzilma ekanligi, hokimiyatga intilishi kabi omillarga urg'o' berishganini kuzatishimiz mumkin. Shunday ta'riflardan bir nechtasiga to'xtalib o'tsak, mashhur partiyashunos olimlardan J.Sartoriga ko'ra, "Saylovlarda ishtirok etuvchi va uning natijasida o'z nomzodlarini davlat organlariga o'tkaza olish qobiliyatiga ega bo'lgan har qanday siyosiy guruh partiyadir" [4].

Taniqli o'zbek partiyashunos olimlaridan B.Yakubovga ko'ra, "Siyosiy partiya – umumiy maqsad va hokimiyat atrofida birlashgan, o'z intilishlarini siyosiy kuzatishimiz egallashga yoki uni amalga oshirishda ishtirok qilishga yo'naltirgan shaxslarning ko'ngillilikka asoslangan siyosiy tashkilotdir"[3]. Siyosiy partiyalarning fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan farqi shundaki, ular maqsadi hokimiyat bo'lgan, aholining muayyan ijtimoiy qatlami manfaatlarini himoyalovchi siyosiy tashkilot ekanligida.

Shuningdek, siyosiy partiyalar hokimiyatga intilishi asnosida ko'plab fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini vujudga keltiradi va rivojlantiradi degan siyosiy qarashlar ham mavjud. Masalan, "AQSH partologiyasida siyosiy partiyalarning davlatchilik tizimidagi o'rniga alohida urg'o' berilib, unga ko'proq davlat mexanizmining bir bo'lagi, siyosiy elitani shakllantirish va tarbiyalash maktabi sifatida qaraladi.Chunki, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Respublikachilar va Demokratlar partiyasi mamlakat siyosiy tizimining markazi bo'lib qoldi va barcha siyosiy institutlar aynan ularning atrofida shakllanadigan tizim yuzaga keldi [5].

Raqobatbardosh siyosiy partiyalar demokratik tizimning eng muhim institutlaridan biri ekanligi umumiy qabul qilingan. Shu bilan birga, siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyatiga uning eng institutsionallashtirish tarkibiy qismi sifatida kiritilgan va ularning rivojlanishi jamiyat rivojlanishi mezoni hisoblanadi[6]. Siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan ikki tomonlama ta'sirga ega, bir tomondan siyosiy partiya rivojlanishiga ularning kuchli ta'siri bo'lsa, ikkinchi tomondan siyosiy partiyalar ularni vujudga kelishi va rivojlanishida muhim institut bo'lib xizmat qiladi.

Turli demokratik rejimni tashkil etish modellarida siyosiy partiyalarning alohida o'rnini doimiy ravishda ta'kidlanadi. Robert Dal demokratik jamiyatda fuqarolik faolligining ahamiyatini asoslar ekan, siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlari saylovlarda ishtirok etish hamda boshqa tinch yo'llar orqali hukumat faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi lozimligini qayd etadi. Bundan tashqari, u fuqarolik jamiyatining samarali faoliyat yuritishida siyosiy partiyalarning muhim o'rnini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, "mustaqil uyushmalar fuqarolik kompetentligi va axborotga asoslangan bilimning manbai hisoblanadi. Ular fuqarolarga nafaqat ma'lumot taqdim etadi, balki muayyan masalalar yuzasidan munozara va muhokamar o'tkazish, shuningdek, o'z siyosiy mahoratlarini takomillashtirish imkoniyatini ham yaratadi"[7].

Siyosiy partiya davlat hokimiyati mexanizmiga singib boradi va unga fuqarolik jamiyati hamda davlat o'rtasidagi ikki tomonlama aloqaning o'ziga xos institutsional agenti sifatida alohida sifat baxsh etadi. Siyosiy partiya fuqarolik jamiyati

manfaatlarini davlatga yetkazish va ularni davlat siyosatini shakllantirish jarayoniga translyatsiya qilishning muhim kanali vazifasini bajaradi [8]. Siyosiy partiyalar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari demokratiya sharoitida davlat va aholi o'rtasidagi vosita, bog'lovchi kabi mazmunan bir xil rolni bajaradi. Shuningdek, har ikkalasi ham davlat institutining muayyan funksiyalarini faoliyati davomida bajarishi mumkin. Manfaatlal almashinuvi shu bilan belgilanadiki, siyosiy partiyalar va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatlarda siyosiy partiyalar o'zlarini qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy bazani yaratish va mustahkamlashdan manfaatdor bo'ladi. Bu esa jamoatchilik fikrini shakllantirish va barqaror ijtimoiy aloqalarni qaror toptirish orqali namoyon bo'ladi. Fuqarolik jamiyati esa siyosiy partiyalarning hokimiyat munosabatlarida ishtirok etishi orqali fuqarolik tashabbuslarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashdan manfaatdordir. Birinchi holatda siyosiy partiyalarning manfaati fuqarolarni iroda bildirishga va saylovlarda partiyalarni qo'llab-quvvatlashga safarbar etishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi holatda fuqarolik jamiyati siyosiy partiyalarning fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirishga intiladi. Manfaatlal almashinuvi partiyaviy-siyosiy tizim doirasida ikki asosiy kanal orqali amalga oshadi: kommunikatsion va tashkiliy kanallar orqali.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotimizda tizimli-tarkibiy, funksional, institutsional, obektivlik, qiyosiy tahlil hamda kompleks yondashuv metodologiyalaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Dunyoga mashhur siyosatshunos olimlarning nazariyalari hamda ilg'or amaliyotlar shuni ko'rsatmoqdaki, siyosiy partiyalar rivoji bevosita fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Bugungi kunda O'zbekistonda mavjud siyosiy partiyalar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari hamkorligi darajasi mustaxkamlanayotgan lekin hali talab darajasiga ko'tarilmagan deb baholash mumkin.

Demokratiyaga asoslangan fuqarolik jamiyati sharoitida siyosiy partiyalar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari hamkorligini birgina ommaviy axborot vositalari misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, siyosiy partiyalar o'z dasturiy maqsadlarini elektoratiga yetkazishda asosiy tayanch institut sifatida OAV larining ahamiyati beqiyos hisoblanadi.

Siyosiy partiyalar va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi o'zaro ta'sirning asosiy jihatlaridan biri ommaviy axborot vositalari bo'lib, u ushbu siyosiy sub'ektlar o'rtasidagi asosiy aloqa kanali bo'lib xizmat qiladi. Ommaviy axborot vositalarining vositachilik roli partiyalarga jamoat manfaatlarini ifoda etish, jamiyatga ularni shakllantirish va himoya qilishga yordam berish va o'zi fuqarolik jamiyatining muhim instituti bo'lib xizmat qilishdan iborat. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalari siyosiy partiyalardan jamiyatga va aksincha oqib kelayotgan impulslarni uzatish mexanizmi vazifasini bajaradi.

Ommaviy axborot vositalari ancha murakkab toifadir. Birinchidan, u fuqarolik jamiyati va siyosiy tizimning elementi; ikkinchidan, u ma'lum bir siyosiy yo'nalishni ishlab chiqish va amalga oshirish vositasi; uchinchidan, u professional korporativ hamjamiyat, tijorat korxonasi va yuridik shaxsdir[9].

Shu nuqtai nazardan, ommaviy axborot vositalariga ikki jihatdan qarash mumkin:

– siyosiy partiyalar va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi bog'lovchi vosita sifatida, bu orqali siyosiy partiyalar bir qator muammolarni hal qiladi va o'z vazifalarini bajaradi;

– partiyalarning o'ziga xos xususiyatlari, holati, tendentsiyalari va rivojlanish istiqbollari hisobga olgan holda hamkorlik strategiyasini ishlab chiqish zarur bo'lgan partiyalarning to'liq hamkorlari sifatida.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari soni yil sayin ortib borayotganligini kuzatishimiz mumkin. Bugungi kunda ularning soni 12 mingdan oshdi. Mamlakatimizda mavjud 5 ta siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan turli yo'nalishlarda hamkorlik qilib kelmoqda. Xususan, uz dasturiy maqsad va vazifalarini amalga oshirish, elektoratini qiyinab kelayotgan turli muammolarga yechim topish va x.k.z.

Muayyan siyosiy partiyalar kesimida aniq misollarni keltirib o'tadigan bo'lsak, tadbirkorlar va ishbilamonlar harakati – O'zbekiston liberal – demokratik partiyasi O'zbekiston tadbirkorlari uyushmasi, O'zbekiston savdo – sanoat palatasi bilan O'zbekiston xalq demokratik partiyasi O'zbekiston Nogironlar jamiyati bilan o'zaro hamkorlikda faoliyat olib boradi. YA'ni mazkur NNT lari faoliyati siyosiy partiyalarning elektorati manfaatlariga mos faoliyat turi bilan shug'ullanishi hamkorlikning asosidir.

O'zbekistonda siyosiy partiyalarning fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorligini oshirish muammolariga quyidagilarni keltirib o'tishimiz mumkin:

1. Institutsional muloqot mexanizmlarining yetarli emasligi;

Siyosiy partiyalar va NNTlar o'rtasida doimiy, tizimli muloqot platformalari yetarlicha shakllanmagan. Hamkorlik ko'p hollarda saylovoldi davri bilan cheklanib qolmoqda.

2. Manfaatlal uyg'unlashuvining past darajasi;

Siyosiy partiyalar asosan elektoral manfaatlal va siyosiy pozitsiyalarni mustahkamlashga qaratilgan faoliyatgagina urg'u beradi. NNTlar esa muayyan ijtimoiy guruhlar manfaatlarini himoya qilishga ixtisoslashgan. Shu sababli strategik hamkorlik emas, epizodik aloqalar ustunlik qiladi.

3. Fuqarolik jamiyatining institutsional mustaqilligi masalasi;

Ayrim NNTlar davlat tashabbusi bilan tashkil etilgan bo'lib, bu holat siyosiy partiya–jamiyat munosabatlarida haqiqiy plyuralizm va mustaqil pozitsiyani cheklashi mumkin.

4. Qonunchilik va amaliy mexanizmlar o'rtasidagi tafovutlarning mavjudligi;

Qonunchilik bazasi hamkorlik imkoniyatini bersa-da, uning amaliy ijrosi, tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va qo'shma loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlari yetarli darajada rivojlanmaganligi.

5. Siyosiy madaniyat va ishonch darajasi;

Fuqarolar va NNTlar orasida siyosiy partiyalarga nisbatan ishonch shakllanganlik darajasi yuqori emas. Bu esa siyosiy partiyalarning fuqarolik jamiyatidagi legitimligini murakkablashtiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, O'zbekistonda siyosiy partiyalar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari hamkorligini yanada mustahkamlashga zarurat bor. Shuningdek ular o'rtasidagi hamkorlikning kuchayishi demokratiyaga asoslangan erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyati bilan o'zaro aloqada ikki tomonlama manfaatlal almashinuvi mexanizmini shakllantirishi zarur. Siyosiy partiyalar uchun bu — ijtimoiy tayanchni kengaytirish vositasi, fuqarolik jamiyati uchun esa davlat qarorlariga ta'sir ko'rsatish kanali hisoblanadi. Siyosiy partiyalar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari hamkorligini kuchaytirish jamiyat barqarorligini ta'minlaydi. Davlat instituti uchun dolzarb bo'lgan muammolarga yechim topishda yordamchi sektorni rivojlantiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

Siyosiy partiya–NNT doimiy maslahat kengashlarini tashkil etish;

Qonunchilik tashabbusida NNT larni ishtirokini ta'minlash;

Qo'shma ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish;

Ochiq muloqot va jamoatchilik muhokamalarini tizimlashtirish;

Partiya dasturlarini fuqarolik jamiyati institutlari bilan muvofiqlashtirish.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [Matn] Rasmiy nashr. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. – 80 b.
2. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>
3. Bo'tayev U.X. Siyosatshunoslik [Matn]: darslik / U.X. Bo'tayev – Toshkent: Info Capital Books, 2024. 480-bet.
4. Неделъ-Червинская М.А., Червенский П.П. Большой толковый словарь иностранных слов в трех томах. Т.2 – Ростов – на – Дону: Феникс .1995. -с.413.
5. Золотухин И.Н. Партийный фактор в политической системе США и Республики Филиппин // Ойкулена. – 2008. - №3. -с. 73.
6. Долгов В.М. Феномен многопартийности в российском обществе. Саратов, 2006.
7. Даль Р. О демократии / Пер. с англ. М., 2000.
8. Холодковский К.Г. Политические партии России // Гражданское общество в России: структуры и сознание. М., 1998.
9. Веденеев Ю.А. Средства массовой информации и избирательный процесс // О выборах. 2001. № 2.